



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 15-avgust

403-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash tartibini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 30-iyuldagi 457-son qarori ijrosi haqida”gi 369-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash tartibini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 30-iyuldagi 457-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 9-avgustdagi 369-6-0-Q/24 qarorlari ijrosi ta‘minlash, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash tartibini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 30-iyuldagi 457-son qarori ijrosi haqida”gi 369-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-iyuldagi 457-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunida foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish tartibi, sug‘urta obyektlarining ro‘yxati hamda gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyat natijasida yetkazilgan zararining sug‘urta summasidan ortig‘ining o‘rnini qoplash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Quyidagilar:

Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyat yuzaga kelishi natijasida boshqa shaxslarning hayotiga, sog‘lig‘iga va (yoki) mol-mulkiga, shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazilganligi uchun foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar natijasida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Fuqarolik javobgarligi sug‘urta qilinadigan inshootlari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Energetika vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda fuqarolik javobgarligi sug‘urta qilinadigan gidrotexnika inshootlari ro‘yxatiga kiritilgan gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlar mablag‘lari hisobidan

fuqarolik javobgarligini sugʻurta qilishi bilan bogʻliq sugʻurta mukofoti toʻlovlari amalga oshirilishini taʼminlashi:

Bunda Suv xoʻjaligi vazirligi tizimidagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning ushbu bandda nazarda tutilgan xarajatlari 2024-yilda Oʻzbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Suv xoʻjaligi vazirligiga ajratilgan byudjet mablagʻlari doirasida, 2025-yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarida koʻzda tutilgan mablagʻlar hisobidan amalga oshirilishi maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. “Suv etkazib berish xizmati” DM (M.Ortiqov) Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Jurabayev), Tuman elektr tarmoqlari korxonasi (X.Abdullayev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-iyuldagi 457-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov